

1. Aksariyat maktab bitiruvchilari oliy ta'limni talab etmaydigan zamonaviy kasblarni egallashga qiziqish bildirishsa ayrimlar zamonaviy kasblar insonga butun umrlik faoliyat bo'lib qolishiga ishonishmaydi

2. Ba'zilar bolaga mukammal bilim berish uchun uni xususiy maktabda o'qitish kerak deb hisoblashsa, ayrimlar davlat maktabida ham mukammal bilim olish mumkin deb bilishadi.

3. Ayrimlar turli shoular va yutuqli o'yinlar odamlarning bir-biriga bo'lgan ishonchini so'ndiradi degan fikrda, ba'zilar esa bunday ko'ngilochar o'yinlarning afzalliklari haqida gapirishadi

4. Ayrimlar chet tilini o'rganish madaniylikning bir belgisi deb bilsalar, ba'zilar o'zga tilini bilish moddiy hayotni ta'minlaydi deyдилar

5. Hozirgi kunda ayrim insonlar reklamalarga ma'lumot ulashishning eng samarali usuli deb qarasa, ayrimlar bu borada cheklovlar qo'yish kerak deb bilishadi

6. Ayrimlar ko'p farzandlilik davlat va jamiyat taraqqiyoti uchun foyda keltiradi deb bilsa, ayrimlar oilada farzand tarbiyasiga e'tibor yetarli bo'lmaydi deb hisoblashadi

7. Ko'p qavatli uylar qurilishining avj olishi shahar arxitekturasi va dizayniga yangicha tus beradi, biroq ko'p aholi bunday uylar o'rniga xonadon yoki manzarali yer maydoni qurilishini ma'qul topadi

8. Ba'zilar kredit yillar davomida ushalmagan orzularni amalga oshirishning qulay yo'li deb hisoblashadi, ayrimlari esa kredit ortiqcha xarajati va moliyaviy holatni qiyinlashtiradi degan fikrda

9. Bugungi kunda sodir bo'layotgan jinoyatlar OAV, internet tarmoqlari orqali ommaga taqdim etilmoqda. Ba'zilarining fikricha, jinoyatlarning bunday oshkora ko'rsatilishi kimlar uchundir jinoyatga yo'l ochib berishi, unga jinoyat qilishni o'rgatishi mumkin. Ba'zilar esa bunday ko'rsatuvlarni ochiq oshkor ko'rsatish tarafdori

10. Ayrimlar oilaviy muammolar aks etgan videolavhalarning ijtimoiy tarmoqlarda tarqalishi jamiyat ma'naviyatiga va ruhiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi deb bilishsa, ayrimlar aksincha fikrda

11. Ayrimlar yaxshi yashash uchun bitta kasbning mohir ustasi bo'lish kerak deb bilishsa, ba'zilar bir necha kasbning egasi bo'lish foydaliroq deb hisoblashadi

12. Sun'iy intellektning salbiy va ijobiy tomoni

13. Plastik qadoqdagi suv yoki vodoprovod suvi

14. O'qitishda milliy usullarni yanada rivojlantirish, sayqallashtirish

muhimmi yoki chet el tajribasini qo'llash muhimmi?

15. An'anaviy to'ylar xorijiy to'ylar kabi ixcham va zamonaviy tarzda o'tkazilishiga qanday qaraysiz?

16. Zamonaviy kitobxonlar audio kitoblarning afzalligini ta'kidlashmoqda, ammo ba'zilar bu fikrga qarshi

17. Psixologlar tarbiyada erkinlik muhimligini ta'kidlashmoqda, ammo ba'zilar erkinlik salbiy oqibatlariga olib keladi degan fikrda

18. Ba'zilar inson faoliyati tufayli yer shari zararlanib borayotganini ta'kidlashmoqda, ayrimlar esa inson faoliyati uni yashash uchun yaxshiroq joyga aylantiradi deb o'ylaydi

19. Ba'zilar ta'lim olish jarayonida mehnat faoliyati bilan ham shug'ullansa tajriba oshib boradi deyishadi, ayrimlari esa ta'lim jarayonida chalg'imasidan faqat bilim olish muhimligini ta'kidlashadi

1

Aksariyat maktab bitiruvchilari oliy ta'limni talab etmaydigan zamonaviy kasblarni egallashga qiziqish bildirishsa, ayrimlar zamonaviy kasblar insonga butun umrlik faoliyat bo'lib qolishiga ishonishmaydi

Dunyo rivojlangani sari zamonaviy kasblar ham takomillashib bormoqda. Katta hayot ostonasiga qadam qo'yayotgan ko'plab o'quvchilar hozirgi kunda diplom talab qilmaydigan kasblarni o'zlashtirishga xohish bildirishmoqda. Ammo ba'zilar bunday kasblarning kelajagi mavhum, inson uchun butun umrlik faoliyat bo'la olmaydi deb hisoblashmoqda. Quyidagi esseda har ikkala qarashni ko'rib chiqamiz.

Birinchi qarash tarafdorlarining fikriga ko'ra, innovatsion kasblar qisqa muddatda o'rganiladi va yaxshi daromad keltiradi. Yangi avlod kasblariga IT, dizayn, marketing, treyding, servis sohalar kiradi. Ularning afzalliklari, birinchidan, oliy ta'limni talab etmasligi, ikkinchidan, qisqa muddatli kurslar orqali o'rganish mumkinligidadir. Atrofimizga nazar tashlaydigan bo'lsak, ko'plab blogerlarning zamonaviy kasblar orqasidan mo'may daromad topayotganini ko'rishimiz mumkin. Bu sohalar ularga moliyaviy jihatdan mustaqil bo'lish va oz vaqtda tajriba orttirish imkonini bergan.

Ikkinchi qarash tarafdorlari zamonaviy kasblarni tanlashda xavf-xatarlarni oldindan ko'ra oladilar. Avvalo, bu sohalar telefon, kompyuter kabi texnikalar bilan bog'liq bo'lib, ulardan chiqayotgan nurlar inson sog'ligi uchun zararlidir. Bundan tashqari texnologiyalar o'zgarib, ba'zi kasblar avtomatlashtirilishi yoki sun'iy intellekt tomonidan bajarilishi mumkin. Hatto inson mimikalarini

o'zlashtirayotgan robotlar rivojlanib borayotgan davrda zamonaviy kasblar taraqqiyoti mavhum masala bo'lib qolmoqda.

Har ikkala tomonning fikrlaridan kelib chiqadigan bo'lsak, zamonaviy kasblar tez rivojlanmoqda. Shu bilan birga ularning kelajagi noma'lum hamdir. Oliy ta'lim talab qiladigan mutaxassisliklar barqarorlik va uzoq muddatli rivojlanish imkonini beradi. Qay birini tanlash esa insonning o'ziga bog'liq.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy kasblarni tanlash har kimning ixtiyoriy tanlovi. Oliy ta'limni talab qilmaydigan kasblar qisqa muddatli maqsadlar uchun foydali bo'lishi mumkin, lekin bu kasblar insonning hayoti davomida bir umrlik faoliyat bo'la olmaydi.

2

Ba'zilar bolaga mukammal bilim berish uchun uni xususiy maktabda o'qitish kerak deb hisoblashsa, ayrimlar davlat maktabida ham mukammal bilim olish mumkin deb bilishadi

Ayrimlar farzandlarini zamonaviy jihozlar, malakali o'qituvchilar va individual yondashuv bilan ajralib turadigan xususiy maktablarda o'qitishni afzal deb bilsa, ba'zilar davlat maktablaridagi an'anaviy ta'lim bilan mukammal bilim olish mumkin deb hisoblashadi. Har ikki tomon ham o'z fikrlarining asosli dalillariga ega.

Farzandlarini xususiy maktablarda o'qitish tarafdori bo'lgan ota-onalar bu muassasalar ko'proq resurslar va imkoniyatlarga egaligini ta'kidlaydilar. Xususiy maktablar bir qator qulayliklarga ega. Birinchidan, ulardagi sinflarda o'quvchi sonining ozligi o'qituvchi har bir o'quvchiga alohida vaqt ajrata olishini ta'minlaydi. Natijada o'quvchilar mavzularni qiynalmay o'zlashtiradilar. Ikkinchidan, zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlangan xonalarda ta'lim olgan o'quvchining bilim darajasi ham yuqori bo'ladi. Shu bilan birga xususiy ta'lim muassasalarida o'qish pulli bo'lgani uchun o'quvchidan ham ota-onadan ham mas'uliyatni talab qiladi. Qo'qon shahridagi "Lider school" xususiy maktabi o'quvchilari turli sertifikatlarni qo'lga kiritib, muddatidan oldin talaba bo'lish imkoniyatiga egaligini fikrimiz isboti sifatida keltirishimiz mumkin.

Davlat maktablarida o'qishni qo'llab-quvvatlaydiganlar esa sifatli ta'lim olish uchun o'qituvchi malakasi va o'quvchi iqtidorini yetarli deb hisoblaydilar. Bunday maktablar bepul bo'lgani uchun jamiyatning salmoqli qatlamini ta'lim jarayoniga qamrab oladi. Davlat maktablarida qo'shimcha to'garaklar, sport mashg'ulotlari va madaniy tadbirlar ko'proq o'tkaziladi. Bu holat o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishiga sabab bo'ladi. O'zbekistonda 11 yillik majburiy bepul ta'lim joriy etilgan, shuning uchun mamlakatimizda savodsizlik darajasi

atigi 0.02 foizni tashkil etadi.

"Har kim o'zgarishi bilan o'lchar" deganlaridek, farzandlarini qanday ta'lim muassasasida o'qitish ota-onaning o'ziga bog'liq. Moliyaviy sharoiti to'g'ri kelsa, menimcha, bola xususiy maktabda o'qigani ma'qul. Chunki pulli muassasalarda berilgan bilimga yarasha talab ham kuchli bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, mukammal ta'lim olish uchun maktabning turi emas balki ta'lim jarayonini tashkil etish muhim. Xususiy maktablar esa bu borada qo'shimcha imkoniyatlar taklif qila oladi.

3

Ayrimlar yutuqli o'yinlar va turli shoular insonlarning bir-biriga bo'lgan ishonchini sondiradi deb bilishadi, ba'zilar esa bu kabi kongilochar o'yinlarning afzalliklari borligini e'tirof e'tishadi.

Insonlar mehnat faoliyati bilan shugullanar ekan, albatta, hordiq chiqarishga ehtiyoj sezadilar. Ba'zilar bugungi kunda ommalashishga ulgurgan yutuqli o'yinlar hamda kongilochar shoular insonlarning madaniy hordiq chiqarishlari uchun bir usul deb bilishsa, ayrimlar bu kabi sovrinli o'yinlar, turli shoularni atrofdagilarga nisbatan ishonch tuygusining yiqolishiga sabablardan biri deb krsatadi.

Birinchi qarash tarafdorlarining fikriga kora, vaqti-vaqti bilan shoular, yutuqli o'yinlarda qatnashish insonlarning hordiq chiqarishlari uchun imkoniyatdir. Jismoniy va aqliy mehnat bilan shugullanib, charchoqni his qilgan har qanday inson, tabiiyki, dam olishga ehtiyoj sezadi. Zangori ekran orqali namoyish etilayotgan kongilochar dasturlar, konsertlar, shoular kopchilikning kayfiyatiga ijobiy ta'sir krsatadi. Masalan, yurtdoshlarimiz orasida "Boriga baraka", "Omad shou" kabi yutuqli o'yinlarda ishtirok etib, ularning kopchiligi katta-katta sovrinlarning egalariga aylangan. Bundan tashqari, istirohat bog'larida, aholi gavjum joylarda konsertlar va shoularning tashkil etilishi odamlarning ruhiyatiga ta'sir etib, turli muammoli vaziyatlarga uchragan insonlarni biroz muddatga mazkur holatdan chalgishiga turtki bsladi. Psixologlarning fikricha, tez-tez konsertlarga tashrif buyuruvchi, shoularga qatnashuvchi insonlar orasida asab kasalliklari va ruhiy zoriqishlar kam uchraydi.

Qarshi fikr tarafdorlari esa sovrinli krsatuvlar va shoular kundan kunga ko'payib borayotgani, bu holat salbiy oqibatlarga sabab bslishi mumkinligini e'tirof etadilar. Yutuqli o'yinda ishtirok etish uchun berilgan shartlarni bajarib, yillar davomida o'yinda qatnashish xabarini kutayotganlar kopchilikni tashkil qiladi. Bu holat esa o'yin tashkilotchilariga nisbatan ishonchning yiqolishiga

sabab bòladi. Misol uchun, "Omad shou" da qatnashish uchun "Jesco" brendi mahsulotlarini xarid qilish lozim. Bir-ikkita mahsulotni xarid qilish bilan òyin ishtirokchisiga aylanish amri mahol. Natijada tòxtovsiz bu firmaning mahsulotlarini sotib olishga tògri keladi, bu esa òz navbatida "chòntakni quritadi". Bundan tashqari, turli kòngilochar shoularni tashkil etish ham katta mablagga borib taqaladi. Birgina misol, joriy yilning avgust oyida Andijon viloyatining Xonobod shahrida tashkil etilgan xalqaro konsert uchun 9mlrd ajratilgan edi. Tògri bu konsertda ishtirok etib kòpchilik madaniy hordiq chiqargandir, ammo davlatimizning tashqi qarzi 30mlrdni tashkil qilayotgan bir vaqtda bu ortiqcha dahmazadek, nazarimda. Shou va konsertlar tashkil etib, xalqning pulini mashshoqlarga sarflagandan kòra, chekka qishloq kòchalari asfalt qilinsa, zamonaviy maktablar qurilsa, xalq uchun manfaatli bo'lar edi.

Mening nazarimda, sovrinli òyin tashkilotchilari faoliyatini nazoratga olish, adolat mezonlarini ishlab chiqish kerak deb òylayman. Turli shoularni tashkil etish masalasi esa davlat byudjeti(xalqning puli)dan emas , balki xususiylashtirilsa nur ustiga a'lo nur bòlar edi. Bejizga donolarimiz "Mashshog'i kòpaygan yurtning qashshog'i kòpayadi" deb ta'kidlashmagan.

Xulosa òrnida shuni aytmoqchimanki, inson har doim ham kòngil yozishga ehtiyoj sezadi. Madaniy hordiq chiqarishning qay yòlini tanlash odamning òz qòlida. Faqatgina bu borada adolat va ma'naviyat kòchasidan uzoqlashmasak bòlgani.

Ayrimlar turli shoular va yutuqli o'yinlar odamlarning bir -biriga bo'lgan ishonchini so'ndiradi degan fikrda, ba'zilar esa bunday kòngilochar o'yinlarning afzalliklari haqida gapirishadi

Turli tijoriy maqsadlarda tashkil qilinuvchi kòngilochar dasturlar reklama va xizmat kòrsatish tarmog'ining asosiy bo'g'ini sifatida yangi mahsulot yoki brendni aholi orasida tanishtirish va keng targ'ib qilishda alohida ahamiyat kasb etadi. Biroq bunday shoular insonlararo munosabatlarga salbiy ta'sir qilishini ta'kidlovchi kishilar ham talaygina. Har ikkala qarashning o'z tarafdorlari va asoslovchi dalillari - bisyor.

Dastlab ommaviy axborot vositalarining takomili sifatida vujudga kelgan yutuqli o'yinlar keyinchalik yirik- yirik kompaniyalarning samarali targ'ibot vositasiga aylandi. Kishiga yuqori kayfiyat ulashuvchi zamonaviy musiqa, kòtarinki ruhdagi shiorlar va ijobiy energiya manbasi sharoitida o'tkaziluvchi bu kabi ijtimoiy dasturlarga kunda- kunora aholi gavjum joylarda tez- tez guvoh bo'lamiz. Zero "Trendymen" nashrining yozishicha, "Alibaba" korporatsiyasi asoschisi Jek Ma ham zamonaviy jamiyatimizda bozor iqtisodiyoti tendensiyalari hukm surar ekan biror mahsulotni ishlab chiqarishdan kòra uni sotish muhimligini alohida ta'kidlagan. Shuningdek, kichik mablag' evaziga katta mukofot, deydik, kòchmas mulk, avtomashina, chet elga sayohat va

shunga o'xshash turli maishiy yutuqlarga ega bo'lish kim uchundir ulkan orzu ro'yobiga aylanishi va qaysidir oilaning iqtisodiy holatini yaxshilashga xizmat qilishi mumkin. Har bir yutuq summasidan davlatga 12% miqdorida daromad solig'i to'lanishini inobatga olsak, qonuniy tashkil qilingan bunday shoularning mamlakat xazinasiga ham yetarlicha hissa qo'shishi oydinlashadi. "Davlat soliq qo'mitasining axborotnomasi"da qayd etilishicha, birgina o'tgan yilning o'zida jismoniy shaxslar tomonidan to'langan daromad solig'ining 0,8 % i ana shu tartibda qo'lga kiritilgan mol- mulk hissasiga to'g'ri kelar ekan.

"Mehnatdan kelsa boylik, turmush bo'lar chiroyli", naqliga rioya qilib, hayotda hamma narsaga o'z kuchi bilan erishishni maqsad qilib olgan kishilar esa yengil- yelpi yo'llar bilan topilgan har qanday boylikka- qarshi. Ular inson qisqa umrini behuda havaslar yo'lida sarflamay, kerakli bilim va ko'nikmalarni egallagan holda daromadidan maqsadli foydalansa, barcha yutuqlarga erisha olishini ta'kidlaydilar. Tasavvur qiling kimdir mashina olish uchun yillab pul yig'sa- yu, uning qo'shnisi bir kunda "Omad shou", yoki "Boriga baraka" da ishtirok etib oxirgi rusumdagi avtoullovga ega bo'lsa. Bu jarayonda tabiiy ravishda jamiyatlardagi muvozanat va insonlarning o'zaro munosabatlariga putur yetadi. Psixanaliz asoschisi Zigmund Freydning fikricha, insonning atrof- muhitdagi hodisalardan noroziligi uning ong ostida yig'iladi va turli psixologik depressiya va stresslarga sabab bo'ladi. Shu bilan birga mahsulotlarni sifatsiz bo'lishiga qaramay

turli promokod va sovrinlar uchun sotib olish hamda iste'mol qilish o'z o'rnida inson salomatligiga putur yetkazadi. Davlat sanitariya epidemiologiya nazorat markazining ma'lumotlariga ko'ra mamlakatimizda bir yilda aynan do'konlardan xarid qilingan yaroqsiz mahsulotlar tufayli zaharlanish ovqatdan zaharlanish ko'rsatkichining 11% miqdoriga teng ekan.

Nazarimda, turmush sifatini yaxshilash uchun turli yutuqli o'yinlarga mukkasidan ketish ham, yoxud bu turdagi shoularni butunlay qoralash ham to'g'ri emas. Kapitalizm sharoitida iste'mol bozori uchun yirik ishlab chiqaruvchilar o'rtasida raqobat bo'lishi va bu jarayonda marketingning turli usullaridan foydalanish mamlakatning iqtisodiy rivoji uchun ham zaruriy jarayondir. Davlat esa barcha sohalarda bo'lgani kabi mazkur dasturlarning qonuniyligi va haqqoniyligini nazorat qila olish mexanizmini yaratishi zarur. Chunki "burgaga achchiq qilib ko'rpani yoqib bo'lmagani" dek, kichik ko'ngilsizliklar uchun katta foydadan ham voz kechish to'g'ri emas.

So'ngso'z o'rnida insonning qaysi yo'l bilan boylik orttirishi uning quvvayi hofizasi, iste'dodi-yu bilimiga bog'liq ekanligini ta'kidlash o'rinli. Biroq peshona teri evaziga kelgan har narsada baraka va samara mavjudligi ham bor gap.

Ayrimlar chet tilini o'rganish madaniylikning bir belgisi deb bilsalar, ba'zilar o'zga tilini bilish moddiy hayotni ta'minlaydi deydlar

Zamonaviy dunyoda chet tillarini bilish ko'pchilik uchun katta ahamiyat kasb etadi. Ayrimlar chet tilini o'rganishni madaniylik va o'zini rivojlantirishning muhim belgisi deb bilsalar, boshqalar unga ko'proq moddiy manfaatlar uchun kerakli ko'nikma sifatida qarashadi. Har ikki yondashuvning o'ziga xos sabablari bor va ular zamonaviy jamiyatda turli xil ahamiyat kasb etadi.

Madaniyatli inson – bu nafaqat ona tilida so'zlashuvchi, balki boshqa tillarni ham o'rganish orqali turli madaniyatlar va xalqlarni tushuna oladigan odamdir. Chet tilini bilish insonni dunyoqarashini kengaytiradi, unga boshqa xalqlarning urf-odatlarini, tarixi va madaniy meroslari haqida chuqurroq ma'lumot olish imkoniyatini beradi. Boshqa til va madaniyatlar bilan muloqot qilish orqali inson o'zining bag'rikengligi va dunyoqarashini boyitadi. Shuningdek, chet tilini bilish insonni madaniy jihatdan yuqori darajaga olib chiqishi mumkin. Masalan, ingliz yoki fransuz tilini bilish kitoblar, filmlar, teatr asarlari va boshqa madaniy mahsulotlarni aslida qanday bo'lsa, shunday tarzda tushunish imkonini beradi. Bu esa insonning o'zini rivojlantirishiga, madaniy tajribalarini kengaytirishiga yordam beradi. Chet tilini bilish nafaqat madaniyatni anglashga, balki uni hurmat qilishga ham turtki beradi.

Biroq chet tilini o'rganishga ko'proq amaliy nuqtayi nazardan qaraydiganlar ham bor. Ularning fikriga ko'ra, chet tilini bilish moddiy hayotda muvaffaqiyatga erishishning muhim omillaridan biridir. Xalqaro biznes, texnologiyalar, ilmiy tadqiqotlar, turizm va boshqa ko'plab sohalarda chet tilini bilish insonning raqobatbardoshligini oshiradi va ishga joylashish imkoniyatlarini kengaytiradi. Ayniqsa, ingliz tili xalqaro til bo'lib, deyarli barcha sohalarda talab etiladi. Chet tilini bilish moddiy daromadni oshirishga xizmat qilishi mumkin. Ko'p tilli mutaxassislar odatda yuqori maosh va nufuzli lavozimlarga ega bo'lishadi. Xalqaro kompaniyalar va tashkilotlarda ishlash imkoniyati kengayadi. Misol uchun, dasturchilar, tarjimonlar yoki xalqaro huquqshunoslar chet tillarini bilgan holda turli mamlakatlarda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishadi va moddiy jihatdan mustahkam hayot kechirish imkoniyatiga ega bo'lishadi.

Menimcha, chet tilini o'rganish har ikkala ma'noda ham muhim: bu madaniyatli va dunyoqarashi keng inson bo'lish uchun zarur bo'lgan ko'nikma, va shu bilan birga, moddiy hayotda muvaffaqiyatga erishishning vositasi sifatida ham katta ahamiyatga ega. Tanlov esa har bir insonning hayotiy maqsadlariga bog'liq.

Xulosa qilib aytganda, chet tilini o'rganish orqali inson nafaqat madaniyatlarni chuqurroq anglab, bilimlarini boyitadi, balki bu bilimlar moddiy hayotni ta'minlashda ham xizmat qilishi mumkin.

Reklama o'zi nima? Uning qanday xususiyatlari bor? Bu esseda reklamaning foydali tomonlari va undan nimani o'rganishimiz mumkinligini ko'rib chiqamiz.

Bu savollar televizor qarshisida o'tirgan har bir tomoshabinning xayolidan, albatta, o'tgan bo'lsa kerak. Ayniqsa, qiziqib serial tomosha qilayotgan paytda ko'ngilochar, ma'naviy-ma'rifiy ko'rsatuvlar orasida reklamaning ko'pligidan noliysan kishi. Lekin faqat beryoqlama qarash ham noto'g'ri. Reklama bizga yangi mahsulot va xizmat turlarini, yangilangan mahsulot va xizmat turlarini tanishtiruvchi vositadir. Ishlab chiqaruvchilar, tadbirkorlar va biznesmenlar uchun reklama raqobatdagi eng zo'r qurol hamdir.

Bir ishlab chiqaruvchi hamma qatori mahsulot ishlab chiqaradi. Aytaylik, bolalar ishtonchasi. Unga yangilik qilib pampers ushlab turuvchi bog'ich qo'shdi. Tadbirkorning bu yangiligini faqat mahsulotni sotib olgan xaridorlargina biladi xolos. Ishlab chiqaruvchi o'zining yangi mahsulotini ijtimoiy tarmoqlarda yoki televideniyeda reklama qildi. Bu mahsulot haqida endi ko'proq odamlar xabar topdi va qarabsizki ushbu mahsulotga bo'lgan talab o'z-o'zidan o'sib boraveradi.

Demak, reklama foydali ekan. Lekin shunday ekan deb har narsani ham reklama qilaverish yaramaydi. Oila davrasida, bir dasturxon atrofida o'tirganda televizorda ayollar gigiyenik vositasi reklamasi namoyish qilinsa, noqulay vaziyat yuzaga keladi. Chunki bizning o'zbekchilikda ota va qiz, qaynota va kelin o'rtasida bunday masalalar azaldan sir saqlab kelinadi. Shunday noqulay vaziyatga tushmaslik uchun yaxshisi, oilaviy o'tirishlarda televizor tomoshasini cheklagan ma'qul.

Reklamalar bizni yangiliklardan xabardor qilib turadi. Yangiliklarni kuzatib borish, ularni amalda qo'llash foydadan xoli emas. O'ylashimcha, reklamalar foydali maqsadga xizmat qiladi.

(bu esse aynan mavzuda emas, lekin misollar, dalillarni olish mumkin)

Ayrimlar ko'p farzandlilik davlat va jamiyat taraqqiyoti uchun foyda keltiradi deb bilsa, ayrimlar oilada farzand tarbiyasiga e'tibor yetarli bo'lmaydi deb hisoblashadi

Ba'zilar oilada farzandlarning ko'p bo'lishi jamiyat uchun foyda keltiradi bu orqali esa davlat taraqqiy etadi deb hisoblaydi. Ayrimlar farzandlar ko'p

bo'lganda ularning hammasiga yetarli e'tibor berilmaydi deyдилar. Qarashlarning har ikkisiда ham asosli fikrlar mavjud.

Birinchi qarash tarafdorlari ko'p farzandlilik davlat va jamiyat uchun katta imkoniyatlar yaratadi deb hisoblaydilar. Ularning fikricha, mamlakatda aholi soni oshsa, mehnat resurslari ham ko'payadi. Bundan tashqari oilada bolalar soni ko'p bo'lsa, ulardan mehr-oqibat, qon-qarindoshlik, bir-biriga ishonch tuyg'ulari yoshlikdan kamol topadi. "O'nta bo'lsa urni boshqa" deb xalqimiz ko'p farzandli bo'lishgan va ularni yaxshi tarbiyalab voyaga yetkazgan. Yangi O'zbekistonning bugungi rivoji aholi soni va ularga berilgan to'g'ri tarbiya bilan bevosita bog'liq. Mamlakatlar reytingiga qaraydigan bo'lsak, demografik o'sish sur'ati baland bo'lgan Hindiston va Xitoy rivojlangan davlatlar qatorida yetakchi o'rinlarni egallaydi.

Biroq boshqa tomon vakillari esa farzandlar soni ko'p bo'lsa, ularning barchasiga birday e'tibor berilmaydi deb hisoblaydilar. Ularning bir qator asosli fikrlari bor. Birinchidan, ota-onalar oila xarajatlarni qoplash uchun ishlaydilar, natijada bolalar tarbiyasida uzilish bo'ladi. Ikkinchidan, har bir bolaning sog'ligi, ta'lim olishi va boshqa xarajatlari ota-onalarni qiynab qo'yishi mumkin. Ko'p bolali oilalarda ota-onalar tarbiyada qattiq nazorat va tartibni saqlay olmasliklari sababli farzandlar xulqida intizomsizlik va tartibsizlik kelib chiqishi mumkin. Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga qaraganda, o'smirlar o'rtasidagi jinoyat va huquqbuzarliklarning salmoqli qismi qarovsiz qoldirilgan bolalar hissasiga to'g'ri kelar ekan.

Menimcha, oilada farzandlarning ko'p bo'lgani yaxshi. Lekin bu masalada ota-onalardan alohida e'tibor va diqqat talab etiladi. Har bir farzand tarbiyasiga jiddiy yondashilsagina ular jamiyat uchun kerakli shaxs bo'lib voyaga yetadi.

Xulosa qilib aytganda, ko'p farzandlilik jamiyat uchun demografik va iqtisodiy jihatdan foydali bo'lishi mumkin, lekin farzandlarga sifatli tarbiya berilmasa bu salbiy oqibatlarga olib keladi. Shuning uchun ota-onalar bu masalaning ijobiy va salbiy tomonlarini hisobga olgan holda qaror qabul qilishlari maqsadga muvofiqdir.

Ko'p qavatli uylar qurilishining avj olishi shahar arxitekturası va dizayniga yangicha tus beradi, biroq ko'p aholi bunday uylar o'rniga xonadon yoki manzarali yer maydoni qurilishini ma'qul topadi

Hozirgi kunda ko'p qavatli uylar qurilishining avj olishi ko'plab shaharlarda keng ko'lamlı o'zgarishlarga olib kelmoqda. Bu kabi uylar yer maydonidan tejamkorlik bilan foydalanish imkonini beradi. Ammo ba'zilar bunday uylar

o'rniga qulaylik va xotirjamlik manbayi bo'lgan xonadon yoki manzarali yer maydoni qurilishi tarafdori. Qay tomonning fikri asosliroq?

Ko'p qavatli uylar shahar hududini kengaytirish o'rniga mavjud yer maydonidan unumli foydalanish imkonini beradi. Va bunday uylar xonadonlarga nisbatan aholini ko'proq sig'dira oladi. Zamonaviy uylar majmua sifatida o'z tarkibiga bog'cha, maktab, shifoxona va savdo markazlarini qamrab oladi. Yangi uslubdagi uylar qator qulayliklari bilan birgalikda shahar ko'rkiga ko'rk qo'shmoqda. Shuning uchun poytaxtga zamonaviy ko'rinish berish maqsadida ko'plab yangi arxitektura namunasidagi uylar qurilmoqda. Toshkentda qurib bitkazilgan yangi dizayndagi "Nest one", "Hilton", "Xonsaroy", "Dream house" majmualari shahar arxitekturasini tubdan o'zgartirganini ko'rishimiz mumkin.

Shunga qaramay ko'pchilik uchun shaxsiy xonadon yoki yer maydoni afzalroq ko'rinadi. Buning bir necha sabablari bor. Birinchidan, xususiy hovli ko'p qavatli uylarga nisbatan keng va yashash uchun qulay. Ikkinchidan, xonadon egalari shahar shovqinidan va gavjumlikdan uzoqroq bo'lishadi. Uchinchidan, uy egalari o'z hovlilarini shaxsiy didiga moslab o'zgartira oladi. Bundan tashqari aholi tomorqa yerlaridan qo'shimcha daromad ham topishi mumkin. Bunga misol qilib o'z hovlimizni keltira olaman. Tomorqamizda issiqxona tashkil qilib yiliga 60 million so'm daromad topmoqdamiz.

Ko'p qavatli uylarning shahar dizayniga husn qo'shishini inkor etib bo'lmaydi. Lekin, nazarimda, xonadonlar va manzarali yer maydonlari sonini ko'paytirgan ma'qul. Chunki hovlilar "O'z uying o'lan to'shaging" deganlaridek, milliyligimiz, an'analarimiz va qadriyatlarimiz kamol topadigan maskandir.

Xulosa qilib aytganda, ko'p qavatli uylarning rivojlanishi shahar arxitekturasiga yangilik olib kiradi. Ko'pchilik uchun esa shaxsiy uylar va manzarali hududlar qurilishi ma'qul tanlov. Bu ikki yondashuv o'rtasidagi muvozanatni topish insonning yashash tarziga bog'liq.

8

Ba'zilar kredit yillar davomida ushalmagan orzularni amalga oshirishning qulay yo'li deb hisoblashadi, ayrimlar esa kredit ortiqcha xarajat va moliyaviy holatni qiyinlashtiradi degan fikrda.

Bugungi kunga kelib insonlar har jihatdan yaxshi yashashlari uchun barcha imkoniyatlardan foydalanishmoqda. Aksariyat kishilar kredit olish ko'p muammolarni hal etadi deyishsa, boshqalar esa bunga qarshi fikr bildirmoqdalar. Har ikkala qarashning foydali tomonlari bor.

Hozirda odamlarning qulay shart-sharoitlarda bo'lishlari uchun hukumatimiz tomonidan ko'plab amaliy ishlar qilinmoqda. Xususan, O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan banklar o'z mijozlariga 21-24-27 foiz evaziga kredit mablag'larini taklif etmoqda. Bu kabi imtiyozlar fuqarolarning

moddiy ahvolini yaxshilaydi, albatta. Shu o'rinda kreditning qulayliklariga to'xtalib o'tsak, birinchidan, kishining moddiy ahvoli yaxshilanadi, ortiqcha xarajatlar cheklanadi, ikkinchidan, pul hamda bank ishi bo'yicha bilimlarga ega bo'ladi, uchinchidan, bankdan olingan mablag'ni ma'lum foiz hisobida yillar davomida to'laydi (katta miqdordagi jamg'arilmagan pul yo'qligi uchun), to'rtinchidan, yillar oralig'ida oxiriga yetmagan ishlar nihoyasiga yetadi. Ko'chmas mulkning bahosi ancha yuqori ekanligi barchamizga kunday ravshan. Hammada ham buni sotib olish uchun yetarli mablag' mavjud emas. Bu holatda ipoteka krediti uy-joy xarid qilish imkonini beradi.

"Bir yaxshining yomoni bor", - deganlaridek, kredit olishning ham noqulayliklari mavjud. Chunonchi, katta miqdordagi to'lovlar, dastlabki to'lovlar va boshqa xarajatlar uchun to'lovlar (sug'urtalash, garovni ro'yxatdan o'tkazish uchun notarial xarajatlar), uzoq yillik qarzdorlik hissi. Ipoteka krediti rasmiylashtirilsa, bank nafaqat ko'chmas mulkka, balki qarz oluvchiga qat'iy talablar qo'yadi, ya'ni qarz to'la qoplanmaguncha mulk sotilmaydi yoki almashtirilmaydi. Bu hol bir qancha ko'ngilsizliklarni keltirib chiqarishi shubhasiz.

Nazarimda, insonlar vaqtida ilm, hunar o'rgansa, o'ziga munosib ishda faoliyat yuritisa, kredit va unga bog'liq masalalarga duch kelmaydi. Yillar davomida qarzdor sifatida yashash unchalik ma'qul yo'l emas deb o'ylayman.

Xulosa qilib aytganda, har ikkala fikrning foydali jihatlari bor. Ikkala holatda ham kredit afzalliklarini, kamchiliklarini o'rganish zarur. Zero, har bir qilingan qaror barcha uchun o'rinli va manfaatli bo'lsin.

Bugungi kunda sodir bo'layotgan jinoyatlar OAV, internet tarmoqlari orqali ommaga taqdim etilmoqda. Ba'zilarining fikricha, jinoyatlarning bunday oshkora ko'rsatilishi kimlar uchundir jinoyatga yo'l ochib berishi, unga jinoyat qilishni o'rgatishi mumkin. Ba'zilar esa bunday ko'rsatuvlarni ochiq oshkor ko'rsatish tarafdori

Ijtimoiy tarmoqlar va OAVlarida turli mavzudagi xabarlariga duch kelamiz. Bularning orasida eng ko'p uchrayotgani esa jinoyatlar bilan bog'liq holatlar ekanligi, ma'lum. Ko'pchilik sodir etilayotgan jinoyatlarni ommaga ko'rsatish salbiy holatlarning ko'payishiga sabab bo'lishini ta'kidlaydilar. Ba'zilar esa bu holatlar sir tutilmasligi, ornak bo'lishi uchun ochiqdan ochiq ko'rsatilishini yoqlaydilar. Har ikki qarash ham muhim dalillarga ega.

Birinchi qarash tarafdorlarining fikriga ko'ra, televideniye hamda ijtimoiy tarmoqlarda jinoyatlarning ochiqdan ochiq namoyish etilishi qator salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi. Birinchidan, bu xabarlarni ko'rgan yoshlar ham ushbu jinoyat ko'chasiga kirib qolishi, ikkinchidan o'smir yoshdagilarning ruhiyatiga salbiy ta'sir etishi, uchinchidan, tez-tez bu kabi xabarlarni ko'rish

insonlar uchun jinoyatchilik holatlari odatiy holga aylanishiga zamin yaratadi. Ya'ni odamlar bu kabi xabarlardan ajablanmay qòyadi, ayniqsa yoshlarning diydadini qotiradi. Misol uchun, televideniyaedagi "Bu kun", "Ochiqchasiga gaplashamiz", ijtimoiy tarmoqlar: Instagram, Facebook kabilarda kunora ushbu mavuga oid videolar berib boriladi. Madaniy hordiq chiqarish uchun zangori ekran qarshisiga òtirgan tomoshabin xavfli jinoyatlar va ularning ishtirokchilari haqida xabardor bòladi. Bu holatning tez -tez takrorlanishi natijasida insonlarning atrofdagilarga nisbatan qòrquvining ortishiga hamda ishonchini yòqotishiga sabab bòladi.

Qarshi fikr tarafdorlari esa jinoyat sodir etganlarni va bu bilan boğliq voqealarni keng jamoatchilikka kòrsatish zarur deb hisoblaydilar. Ularning fikricha, jinoyatga oid lavhalar insonlarni ogohlantiradi va sergaklikka chorlaydi. Jinoyat kòchasiga kirganlarning qonun oldida javob berishi, jazoga tortilishi va keyingi hayot tarzini tiklashda esa aksariyat hollarda turli muammolarga uchrashi òrnak qilib kòrsatiladi. Bundan tashqari, ijtimoiy tarmoqlarda janjalkashlik, samosud, kòchada bezorilik qilish bilan boğliq videolarga kòzimiz tushadi. Bu holatdan xabardor bòlgan IIB hodimlari vaziyatni òrganib, tezkorlik bilan chora kòradilar va ijtimoiy tarmoqlarda rasmiy bayonot beradilar. Bu bilan mazkur holatga guvoh bòlgan ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari ogohlantiriladi. Jinoyat hech qachon jazosiz qolmasligiga amin bòladilar.

Mening fikrimcha, jinoyat bilan boğliq voqealarni ommaga kòrsatish kerak. Bu bilan insonlar turli xavf-xatarlardan ogohlantiriladi. Sònggi vaqtlarda jinoyatlar sodir etilishi kundan kunga oshib bormoqda. Ayniqsa, voyaga yetmagan bolalarni òğirlab ketish holatlari uchrab turibdi. Shu kabi vaziyatlarni oldini olish uchun ham OAV va ijtimoiy tarmoqlar orqali sodir etilayotgan jinoyatlar kòrsatilishi zarur deb hisoblayman. Zero donolar ta'kidlaganidek, "Ogohlik-davr talabi".

Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni aytmoqchimanki, jinoyat kòchasiga kirib qolmaslik uchun farzandlarimiz tarbiyasiga loqayd bo'lmaylik. Insonlarga taqdim etilayotgan ma'lumotlarni chuqur òrganaylik va òzimizga kerakli xulosani chiqaraylik.

Ayrimlar oilaviy muammolar aks etgan videolavhalarning ijtimoiy tarmoqlarda tarqalishi jamiyat ma'naviyatiga va ruhiyatiga salbiy ta'sir kòrsatadi deb bilishsa, ayrimlar aksincha fikrda

Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlarda turli videolavhalar, xususan, oilaviy mojarolar aks etgan sahnalar tez-tez tarqalib turadi. Ayrimlar bu videolar

jamiyat a'zolariga salbiy ta'sir ko'rsatadi, deb hisoblashsa, boshqalar buning foydali jihatlari borligini ta'kidlaydi. Qaysi fikr asosliroq?

Birinchi nuqtayi nazarga ko'ra, oilaviy muammolarni ommaga oshkor qilish jamiyatning ma'naviy asoslarini zaiflashtiradi. Birinchi navbatda, oilaviy munosabatlar shaxsiy va sirli bo'lib qolishi lozim. Oilaning ichki muammolari jamoat mulkiga aylanishi, ayniqsa, bolalar ruhiyatiga zarar yetkazishi mumkin. Bolalar va o'smirlar bu kabi mojarolarni ko'rib, oilaning tinchligini qadrlashdan ko'ra, mojarolarga nisbatan befarq bo'lib qolishlari mumkin. Oila ma'naviyat va axloqning asosi hisoblanadi. Agar oilaviy mojarolar omma ko'z o'ngida namoyish etilsa, bu nafaqat oilaviy qadr-qimmatni, balki jamiyatdagi axloqiy me'yorlarni ham zaiflashtiradi. Bundan tashqari, bu holat shaxsiy hayotni ommaga oshkor qilish odobi buzilishiga olib keladi. Oila shaxsiy hudud bo'lib, uni ijtimoiy tarmoqlarda omma ko'z o'ngida ochiq muhokama qilish o'sha oilaning sha'ni va obro'siga ham putur yetkazishi mumkin. Bunday videolar ko'pincha tuzatib bo'lmaydigan oqibatlariga olib keladi, chunki mojarolarni ommaga oshkor qilish, muammo hal bo'lishiga yordam bermasdan, aksincha, uni chuqurlashtiradi. Yon qo'shnim o'z shaxsiy hayotini ijtimoiy tarmoqlarda muhokama qilishi natijasida muqaddas maskanining buzilib ketishiga sabab bo'ldi

Ammo masalaning boshqa bir tomoni ham bor. Ayrimlar bu kabi videolar ijtimoiy muammolarni ochib tashlash orqali jamiyatning hushyor bo'lishiga va muammolarni tan olishiga xizmat qiladi, deb hisoblashadi. Bu nuqtayi nazardan qaraganda, oilaviy muammolarni ijtimoiy tarmoqlarda muhokama qilish, odamlarga oilaviy muammolarni hal qilish yo'llari haqida ma'lumot beradi. Bu bilan, birinchidan, jamiyatning oila institutiga e'tibori ortishi, ikkinchidan, o'rnak oladigan misollar orqali muammolarni barvaqt bartaraf etish mumkin bo'ladi. Shuningdek, bu videolar ayrim hollarda huquqiy masalalarni ko'taradi. Masalan, oilaviy zo'ravonlik yoki boshqa huquqbuzarliklar videotasvirlar orqali oshkor bo'lib, qonuniy choralar ko'rilishiga imkon yaratadi. Bu kabi holatlarda, ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqalgan videolar inson huquqlarini himoya qilishga xizmat qilishi mumkin.

Fikrimcha, oilaviy muammolarni aks ettiruvchi videolarning ijtimoiy tarmoqlarda tarqalishi murakkab masala bo'lib, u ijobiy va salbiy tomonlarga ega. Bu kabi kontentni tayyorlash va tarqatishda ehtiyotkorlik va mas'uliyat muhim.

Xulosa qilib aytganda, jamiyatning ruhiyati va ma'naviy qiyofasini asrash uchun shaxsiylik chegaralarini hurmat qilish lozim, lekin shu bilan birga, jamiyatni ogoh qilishga xizmat qiluvchi ijtimoiy masalalarga ham e'tibor qaratish talab etiladi.

Ayrimlar yaxshi yashash uchun bitta kasbning mohir ustasi bo'lish kerak deb bilishsa, ba'zilar bir necha kasbning egasi bo'lish foydaliroq deb hisoblashadi.

Zamonaviy dunyoda muvaffaqiyatli va yaxshi hayot kechirish uchun turli yo'llar bor. Ayrimlar bir kasbning mohir ustasi bo'lishni eng yaxshi yo'l deb bilishsa, boshqalar ko'p kasblarni egallash orqali hayotda ko'proq imkoniyatlarga ega bo'lish mumkinligini aytadilar. Ushbu ikki qarashning har birining o'ziga xos afzalliklari va kamchiliklari bor.

Bitta kasbga ixtisoslashgan insonlar o'z sohalarida chuqur bilim va tajribaga ega bo'lishadi. Ular doimiy ravishda o'z malakalarini oshirish va sohaning eng yangi yutuqlarini o'rganish bilan shug'ullanadi. Natijada, bu ularga nafaqat o'z ishining mohir ustasi bo'lish, balki yuqori maosh, ijtimoiy obro' va professional hurmatga erishish imkoniyatini beradi. Masalan, tibbiyotda malakali jarroh yoki texnologiya sohasida yetakchi dasturchi bo'lish katta daromad va qadr-qimmat keltiradi. Bundan tashqari, bitta kasbga e'tibor qaratish vaqt va kuchni tarqoq bo'lmasdan samarali ishlatishga yordam beradi. Inson o'z ishini mukammal o'rgangan sari qiyinchiliklar bilan kamroq uchrashadi, yangi maqsadlarga tezroq erishadi. Natijada, u o'z sohasida etakchi bo'lib, doimiy ish bilan ta'minlangan bo'ladi.

Zamonaviy dunyo juda tez o'zgarayotgani bois, bitta kasb bilan cheklanmaslik ba'zan foydaliroq bo'lishi mumkin. Bir necha kasbni egallash insonning ko'nikmalarini kengaytiradi va u turli sohalarida ishlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa hayotda ko'proq imkoniyatlar yaratadi, chunki inson bir yo'nalishda muvaffaqiyatsizlikka uchrasa, boshqa sohada o'zini sinab ko'rishini mumkin. Masalan, bir vaqtning o'zida muhandislik va dizayn sohalarini egallagan odam texnik bilim va ijodiy yondashuvni birlashtirib, yanada qiziqarli va muvaffaqiyatli loyihalar yaratishi mumkin. Yoki iqtisodiyot va dasturlashni o'rgangan inson startaplarni boshqarishda katta muvaffaqiyatga erishishi ehtimoldan xoli emas. Bunday ko'p qirrali insonlar, odatda, turli vaziyatlarga moslasha olish qobiliyatiga ega bo'lib, mehnat bozorida ham yuqori baholanadi.

Nazarimda, bir kasbning mohir ustasi bo'lish chuqur bilim va tajriba talab qiladi, bu esa insonni o'z sohasida yuqori darajaga olib chiqishi mumkin. Biroq, bir necha kasbni egallash ham zamonaviy dunyoda foydali bo'lishi mumkin, chunki bu ko'proq imkoniyatlarga ega bo'lishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, har ikki yondashuvning ham afzalliklari bor, va tanlov insonning qiziqishlari, maqsadlari va sharoitlariga bog'liq. Eng muhimi, inson o'z yo'lini ongli ravishda tanlab, doimiy ravishda o'zini rivojlantirib borishi lozim.

Sun'iy intellektning ijobiy va salbiy tomoni

XXI asrga kelib texnika, texnologiya rivojida ishonib bo'lmaz natijalarga erishildi. Shulardan biri sun'iy intellekt hisoblanadi. Insoniyat turmush tarziga sun'iy intellekt ijobiy ta'sir ko'rsatmoqdammi yoki salbiy? Quyidagi esseda shu haqida fikr yuritamiz.

Sun'iy intellekt haqida so'z borar ekan avvalo uning ijobiy jihatlariga to'xtalamiz. Xalqaro Bandlik va Mehnat Vazirligining ta'kidlashicha, sun'iy intellekt yordamida ish jarayoni dan 55,6 foizga tezlashdi. Bu esa kompaniyalarga xarajatlarni kamaytirishga yordam berdi. Bundan tashqari dunyo xabarlarida ma'lum qilinishicha, yaratilayotgan aqlli robotlar boquvchisiga ega bo'lmagan qariyalarga, bemorlarga beminnat va sifatli xizmat ko'rsatmoqda. Bu singari ma'lumotlardan anglaydigan bo'lsak, sun'iy intellekt insoniyat uchun juda foydali.

Har yaxshining bir yomoni bo'lganidek, yaratilayotgan texnika vositalari ham bir qator muammolarni keltirib chiqarmoqda. Bulardan eng muhimi dunyo miqyosida demografik o'sish jadallashgan bir paytda sun'iy intellekt ta'sirida ishsizlik sonining ortayotganidir. Jahon Iqtisodiy Forumining kelajak ish o'rinlari haqidagi hisobotida keyingi besh yilda yer yuzida ish o'rinlarining 14 millioni yo'q bo'lib ketishi haqida ma'lumotlar aytilgan. O'z navbatida ishsizlik ortidan bir qator muammolar vujudga keladi. Odamlarda kam harakatlilik avj oladi. Ibn Sino bobomiz barcha kasalliklarning otasi kamharakatlilik deganidek, oqibatda aholi orasida turli xil xastaliklar ko'payishi mumkin.

Fikrimcha sun'iy intellekt to'kin hayotga intiluvchilarni hushyorlikka chorlamoqda. Hozirda mehnat taqsimoti insonlar va texnikalar orasida raqobatni yuzaga keltirib ulgurdi. Odamlar ongli mavjudot sifatida o'z kasbining chinakam mutaxassisi bo'lsagina, yangiliklar yarata olsagina sun'iy intellekt ularga har doim yordamchi bo'lib qoladi. Qolaversa, sun'iy intellekt bilan raqobat jarayonida ijtimoiy-psixologik madaniyatimiz ham alohida ahamiyatga ega. "Disney" kompaniyasining tarmoqlaridan birida robotlar kassirlik qilmoqda. Tashkilot rahbari buning sababini "Ishchi xodimlar bilan boladigan har xil nizolarining oldi olindi"- deya izohladi.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, biz insonlar doimo izlanishda, harakatda bo'lsak, yaratilayotgan sun'iy intellektlar biz uchun dastyor bo'lib qolaveradi. Sun'iy intellektning ijobiy va salbiy jihatlarini hisobga olgan holda undan ehtiyojlarimiz yo'lida oqilona foydalanaylik.

Plastik qadoqdagi suv yoki vodoprovod suvi

Suv insoniyatning har tomonlama rivojlanishi uchun zarur. Shuning uchun uni hayot manbayi deyishadi. Quyidagi esseda plastik qadoqdagi suv va vodoprovod suvning o'ziga xos xususiyatlari afzalliklari va kamchiliklarini ko'rib chiqamiz.

Plastik qadoqdagi suvlar turli tozalash jarayonidan o'tib, odamlarga filtrlangan holda yetib keladi. Bu suvlar tog'lardan yoki artezion quduqlardan olinadi. Plastik idishdagi suv, birinchidan, qulay (kun davomida bemalol yonimizda olib yurishimiz mumkin). Ikkinchidan, toza va ichishga yaroqli. Uchinchidan, bunday suvlar uzoq vaqt mobaynida o'z sifatini saqlab qolishi mumkin. Biroq qadoqlangan suvlarning kamchiliklari ham yetarlicha. Eng asosiy muammo bu suvlar plastik chiqindilarning ko'payishiga sabab bo'lishidir. Statistik ma'lumotlarga qaraganda, dunyo miqyosida yiliga o'rtacha 400 million tonna plastik chiqindi ajralib chiqar ekan. Chiqindining bu turi batamom yo'qolishi uchun 200 yil kerakligini inobatga olsak bu global muammo bo'la oladi.

Vodoprovod suvi davlat tomonidan ta'mirlanadigan suv hisoblanadi. Bu suv doimiy mavjud bo'lib, uni olish uchun qo'shimcha xarajat talab qilinmaydi va bu odamlar uchun iqtisodiy qulay variantdir. Artezian suvi qayta ishlanmaydi va qadoqlanmaydi. Natijada ekologiyaga zarar ahamiyatmaydi. Har yaxshining bir yomoni bor deganlaridek, vodoprovod suvning kamchiliklari ham mavjud. Ayrim chekka qishloqlarga ichimlik suvi yetib bormagani uchun suv quvurlarda uzoq vaqt turib qolishi bakteriyalar bilan ifloslanishi mumkin. Bu esa inson sog'ligiga xavf tug'diradi. Toza suvning hammaga yetib borishi uchun uni tejashimiz lozim.

Plastik qadoqdagi suv va vodoprovod suvning afzallik va kamchiliklarni inobatga olgan holda, menimcha, suv manbasining har ikki turidan o'rni bilan foydalangan ma'qul. Artezian suvini kundalik ehtiyojlarimiz uchun sarflash ma'qul bo'lsa, qadoqlangan suv yonimizda olib yurish uchun qulay hisoblanadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, har ikkala suv manbayining ekologiyaga va inson salomatligiga ta'sirini inobatga olgan ma'qul. Har qanday ichimlik suvni tejash esa bugunning asosiy talabidir.

Plastik qadoqdagi suv yoki vodoprovod suvi

Hozirgi kunda ko'pchilik odamlar plastik qadoqdagi suvni afzal ko'rishsa, ayrimlar vodoprovod suvini tanlashmoqda. Har ikkala fikr egalarining ham afzal jihatlari bor. Demak, yuqoridagi fikrlarning ikkisi ham muhim ahamiyatga ega.

Birinchi qarash ta'rafdorlarining fikriga ko'ra, plastik qadoqdagi suvni

iste'mol qilish inson organizmi uchun xavfsiz bo'lish bilan birga foydali hamdir. Misol uchun aytadigan bo'lsam, biz oilamiz bilan har doim qadoqlangan suv iste'mol qilamiz, quvonarli tomoni shundaki, shu paytgacha biron marta suv tufayli kasalliklar yuzaga kelmagan. JSST direktori Tyodr Gyumbelos xabar berishicha, plastik qadoqdagi suvlarning sofligi va inson sog'ligi uchun zararsiz ekanligi mutaxassislar tomonidan tasdiqlangan. Shunday ekan, hayotimiz uchun doimo eng yaxshi va sifatli bo'lgan mahsulotlarni tanlashimiz lozim.

Biroq vodoprovod suvini yoqlovchi insonlar ham yo'q emas oramizda. Chunki vodoprovod suvini insonlar asosan turar joylaridan (artizan, siqma kran, quduq qazish shaklida) chiqarib iste'mol qilishadi. Bu, birinchidan, moddiy tomondan sarf-xarajatlarni kamaytiradi va foydalanish hajmi cheklanmagan, negaki qadoqlangan suvlar ancha qimmat bo'lishi bilan birga hajmi cheklangan holatdadir. Ikkinchidan, quduq suvi chanqoqni tezda qondirishi hech kimga sir emas. Qadimdan ota-bobolarimiz iste'mol uchun asosan quduq suvidan foydalanishgani fikrimiz dalili bo'la oladi. Ammo vodoprovod suvidan foydalanishda ehtiyotkorlik ham zarar qilmaydi. 2019-yil Ugan davlatidagi aholining yoppasiga vodoprovod suvidan zaharlanish holatlari kishini sergaklikka chaqirishi tabiiy.

"O'zingga ehtiyot bo'l, qo'shningni o'g'ri tutma",- deganlaridek, fikrimcha, hozirgi kunlarimizda plastik qadoqdagi suv vodoprovod suviga qaraganda ancha foydali. Chunki ishlab chiqarish sanalari yozilgan bo'lib, bir nechta foydali vitaminlarni (B2, C, C6) ham o'z ichiga oladi.

Xulosa qilib aytganda, har ikkala qarashning ham yetarlicha ijobiy va salbiy oqibatlari mavjud. Har kim o'z imkoniyatidan kelib chiqqan holda suv istemolini tashkil qilishi maqsadga muvofiqdir.

14

O'qitishda milliy unsurlarni yanada rivojlantirish, sayqallashtirish muhimmi yoki chet el tajribasini qo'llash muhimmi?

Ta'lim samaradorligini oshirish butun dunyoda global masalalardan bilan hisoblanadi. Ba'zi insonlar kelajak avlodga bilim berishda milliy unsurlarni takomillashtirish muhim desalar, boshqalar chet el tajribasidan foydalanish tarafdori. Nazarimda, har ikki usulni uyg'unlikda qo'llash katta samara beradi.

SHiddat bilan rivojlanayotgan bugungi kunda ta'lim sohasida ham qator yangiliklar, o'zgarishlar yuz bermoqda. O'quvchilarni salohiyatli, chuqur dunyoqarashga ega, tajribali bo'lib yetishishida esa o'qitish muhim ahamiyatga ega. O'quvchilarni o'qitishda milliy qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash, milliy unsurlardan darsda mohirona qo'llay bilish lozim. Fikrimning dalili sifatida jadidchilik maktabining namoyondalaridan biri bo'lgan Abdulla

Avloniyni misol qilib keltirishimiz mumkin. U sinf xonasiga kirib kelish jarayonida xonaning markaziga kelgunga qadar milliyligimizga mos mavzuga oid she'rlarni o'qib kelgan. Bu bilan o'quvchilarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalagan. Ushbu ma'lumotlar "Oyna" jurnalida chop etilgan maqolalardan birida aytib o'tilgan.

Boshqa fikr tarafdorlari esa, o'qitishni chet el tajribasiga suyanan holda olib borish katta samara beradi deb hisoblaydilar. Buning dalili sifatida O'zbekiston ta'lim tizimi finland ta'limidan andoza olib, jahon standartlariga moslashayotganligini keltirishimiz mumkin. Maktablarda o'tilayotgan turli xil metodlar orqali o'quvchilar, birinchidan, mavzuga oid detallarni oson tarzda tushunishadi. Ikkinchidan, darsga bo'lgan qiziqish yanada ortadi.

"Har kim o'z qarichi bilan o'lchar" deganlaridek, ikkala tomoning qarashlarini ko'rib chiqqan holda shuni aytish mumkinki, har qanday o'qitish tajribasidan foydalanmaylik, bu kelajak yoshlari uchun manfaat bersin. Zero yoshlar kelajak poydevoridir.

Xulosa qilib aytganda, o'quvchilar milliy unsur orqali o'qitish ularda qadriyatlarimizga hurmatni rivojlantirsa, chet el tajribasi orqali zamon bilan hamnafas bo'ladi. O'qitishning har ikkala turini amaliyotga tatbiq etish eng samarali yo'l bo'la oladi.

15

An'anaviy to'ylar xorijiy to'ylar kabi ixcham va zamonaviy tarzda o'tkazilishiga qanday qaraysiz?

To'y - bu har bir inson hayotidagi eng muhim va xushnudlik paydo qiladigan voqelik. Ushbu hodisa xalqimizda urf-odatlar va an'analar asosida tashkil etiladi. Ammo G'arb mamlakatlarida bu marosim ixcham va zamonaviy tarzda tashkil etiladi. An'anaviy va xorijiy to'ylarning o'z afzalliklari mavjud.

An'anaviy to'ylar xalqning madaniyati va tarixidan kelib chiqqan holda tashkil etiladi hamda bu jarayon boshqa millatlardan ajralib turadi. Jumladan, biz o'zbeklarning "nahor osh", "kelin salom", "hudoyi maslahat", "supra ochdi" kabi marosimlari betakrordir. Bundan tashqari to'ylarda ko'pkari va kurash tashkil etilishi urf-odatlarimizning rang-barangligidan. Bu kabi milliyligimizni namoyon etuvchi omillar, birinchidan, o'zligimizni asraydi, ikkinchidan, tarixiy an'analarga hurmatimizni oshiradi, uchinchidan, boshqa xalqlardan farqlaydi, to'rtinchidan, mehr- oqibatni mustahkamlaydi.

Xorijiy to'ylar zamonaviy va individual tarzda tashkil etiladi. Jumladan, AQSHda to'ylar ko'pincha kichik va shaxsiy bo'lib, kelin va kuyov o'z xohishlariga ko'ra sohil bo'yida yoki bog'da o'tkazishni afzal ko'radi. Marosimga esa faqat yaqin insonlari va do'stlarini taklif etishadi. Bunday to'ylar moliyaviy

tejamkorlikni ta'minlab, ortiqcha dabdabozlikdan xalos etadi. Sharqiy mamlakatlar: Hindiston, Xitoy, Yaponiyada to'ylar milliy urf-odatlar asosida o'tkaziladi.

Fikrimcha, to'ylardagi an'anaviylik muhim jarayon bo'lib, bu nafaqat milliy o'zlikni, balki jamiyat hayotidagi birdamlikni, qarindoshlar o'rtasidagi oqibatni mustahkamlaydi. Ammo ufr-odat deb imkoniyati yetmasa-da qarzga botib to'y qilish yoki boyligini ko'z-ko'z qilish maqsadida isrofgarchilikka yo'l qo'yish kerak emas. Xalqimiz: "Behuda chiranish belni chiqaradi", - deb bejizga aytmagan.

Xulosa qilib aytganda, to'y - bu nafaqat insonlar, balki jamiyat birlashuvi va madaniyatining davomiyligini ta'minlovchi jarayon. Faqat uni me'yor tamoyillari asosida o'tkazish lozim.

16

Zamonaviy kitobxonlar audio kitoblarning afzalligini ta'kidlashmoqda, ammo ba'zilar bu fikrga qarshi

Bugungi texnologiyalar rivojlanishi kitob o'qish madaniyatiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Zamonaviy kitobxonlar orasida audio kitoblarning ommalashgani buni tasdiqlaydi. Ular ko'pchilik uchun qulay va samarali vosita sifatida qaralsa-da, bu turdagi kitob o'qish usuliga qarshi chiqqanlar ham mavjud. Ularning har ikkisi o'z nuqtayi nazarlariga ega bo'lib, har ikkala yondashuvning afzalliklari va kamchiliklari mavjud.

Audio kitoblarning eng katta afzalligi – ularning qulayligi. Bugungi zamon odamlari juda band bo'lgani uchun, ular odatdagi kitob o'qish uchun vaqt ajrata olmaydi. Audio kitoblar esa har qanday sharoitda, masalan, sayr qilish, mashina haydash, uy ishlari bilan shug'ullanayotgan paytda ham eshitish imkonini beradi. Bu orqali vaqtni samarali o'tkazish mumkin, ya'ni bir vaqtning o'zida ham yangi bilim olish, ham kundalik yumushlarni bajarish mumkin bo'ladi. Shuningdek, audio kitoblar ko'pchilik uchun yanada qiziqarli va jonliroq ko'rinadi. Ayrim kitoblar professional ovoz aktorlari tomonidan ijro etilishi natijasida, asar o'ziga xos hissiy ohangga ega bo'lishi va audiokontentning tinglovchi ustida kuchliroq ta'sir ko'rsatishi mumkin. Eshitish orqali asarni anglash esa ko'pincha osonroq bo'lib, inson miyasiga ortiqcha zo'riqish bermaydi, bu esa bilimlarni yanada tezroq o'zlashtirishga yordam beradi.

Shunga qaramay, ba'zi kitobxonlar audio kitoblarning ma'lum kamchiliklariga ishora qiladilar. Avvalo, o'qish jarayoni bilan solishtirganda, audio kitoblarni tinglash insonning chuqur e'tiborini tortmasligi mumkin. Odatda, o'qish jarayoni insonni to'liq diqqatini jamlashga majbur qiladi, kitobda keltirilgan g'oya va tafsilotlar ustida chuqur mulohaza yuritish imkonini beradi. Audio kitoblarni esa boshqa ishlar bilan shug'ullanayotgan paytda tinglash ko'pincha olingan ma'lumotning sifatsiz o'zlashtirilishiga olib kelishi mumkin.

Bundan tashqari, ba'zi kitobxonlar uchun kitoblarni o'z qo'llari bilan varaqlash, so'zlarni ko'rish va ular bilan aloqada bo'lish o'zi bir zavqdir. O'qish jarayonida inson o'z tasavvurlarini erkinroq yaratadi, asar obrazlarini o'z xohishiga ko'ra shakllantiradi. Audio kitoblar esa bu erkinlikni qisman cheklashi, ovozli ijro insonning o'z tasavvurini cheklashiga sabab bo'lishi mumkin.

Fikrimcha, audio kitoblar zamonaviy kitobxonlar uchun juda qulay va samarali vositadir. Ular band insonlar uchun bilim olishning yangi yo'lini taqdim etadi, vaqtdan unumli foydalanishga yordam beradi. Lekin uning kamchiliklarini ham inobatga olgan ma'qul.

Xulosa qilib aytganda, mutolaa jarayoni insonlarga faqat foyda keltiradi. Kitoblarni tinglab tushunish ham o'z navbatida yaxshi, biroq bu turdagi kitob o'qish usuli har doim ham chuqur o'zlashtirishga kafolat bermaydi va ayrim kitobxonlar uchun o'qishning hissiy zavqi yo'qolishi mumkin. Shuning uchun kitobni qanday o'qish tanlovi har bir insonning o'ziga bog'liq

17

Psixologlar tarbiyada erkinlik muhimligini ta'kidlashmoqda, ammo ba'zilar erkinlik salbiy oqibatlarga olib keladi degan fikrda

Bugungi kunda psixologlar erkinlik orqali bolaning shaxsiy rivojlanishi, ijodiy fikrlashi va mustaqillikka bo'lgan intilishlarini tarbiyalashni maqsad qilsalar, boshqalar noo'rin berilgan erkinlik salbiy holatlarni yuzaga chiqaradi deb hisoblaydi. Qay tomonning fikrlari asosli ekanini quyidagi esseda ko'rib chiqamiz.

Hozirgi zamon psixologlarining fikricha, erkinlik tarbiyaning muhim qismi sifatida bolalarning o'zini-o'zi anglashiga va mustaqil qaror chiqarishiga yordam beradi. Bola erkin bo'lganda, birinchidan, o'z qiziqishlarini anglay oladi, ikkinchidan, qobiliyatlarni rivojlantirib boradi, uchinchidan, o'z muammolarini mustaqil hal etishni o'rganadi. Maktabimizning 11-sinf o'quvchisi Abdulbositxon ota-onasi o'qituvchi bo'lgani uchun ko'plab qarorlarni o'zi mustaqil qabul qilgan. Tarix faniga bo'lgan qiziqishi rivojlanib borib kuni kecha u ushbu fandan A+ darajasidagi milliy sertifikatni qo'lga kiritdi. Bu natijalarning barchasi Abdulbositxonga yaratib berilgan erkinlik samarasidir. Demak, bolani o'z ixtiyori bilan tarbiyalash uning jamiyatda muvaffaqiyatli shaxs bo'lib shakllanishiga yordam beradi.

Biroq erkinlikni noto'g'ri tushunish, bolaga cheksiz imkoniyatlar yaratish unda tartibsizlik, intizomsizlik, mas'uliyatsizlik kabi illatlarni keltirib chiqarishi

mumkin. Bolaga yetarli yo'riqnoma yoki cheklovlar berilmasa, u o'z harakatlarini nazorat qilishda qiynalishi mumkin. Yoshligidan bebosh bo'lib ulg'aygan bola jamiyat uchun zarar keltiradi. Ichki ishlar vazirligining 2023-yil hisobotida yil yakuniga ko'ra qoidabuzarliklarning 31 foizini 18 yoshga to'lmagan o'smirlar sodir etgani ko'rsatib o'tilgan. Mana shunday holatlardan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, cheklov bilan berilmagan erkinlik bola tarbiyasiga salbiy ta'sir o'tkazishi mumkin.

"Har kimning o'z o'lchovi bor" deganlaridek, bolani qanday tarbiyalash ota-onaning o'ziga bog'liq. Farzandga o'rni kelganda qattiqqo'llik, o'rni kelganda erkinlik bilan berilgan tarbiya, albatta, yaxshi samara beradi.

Xulosa qilib aytganda, erkinlik, qattiqqo'llik va mas'uliyat o'rtasidagi muvozanatni saqlay olish muhim. Erkinlik tarbiyaning ajralmas qismi bo'lib qolishi kerak. Shunday bo'lsa-da uni nazoratga olish maqsadga muvofiqdir.

Esse mavzusi: Psixologlar tarbiyada erkinlik muhimligini ta'kidlashyapti. Ammo ba'zilar erkinlik salbiy oqibatlarga olib keladi degan fikrda.

Tarbiya barcha zamonlar osha o'zining dolzarbligini yo'qotmaydigan muhakamalar markazidagi masaladir. Diniy hamda dunyoviy bilimlar doirasida ham ahamiyati balanddir. Qalbshunoslarning aytishiga ko'ra tarbiyada erkinlik o'ta muhimligini aytishadi. Ayrim insonlar esa buni salbiy oqibatlarga olib kelishini ta'kidlashadi. Xo'sh, qaysi taraf qarashlari o'rinli?

Nafaqat bir oila, balki yer sayyorasidagi har bir mamlakatning gullab-yashnashi, undagi xalqlarning farog'ati ham tarbiya bilan bevosita bog'liqdir. Tarbiyada turli mamlakatlar, turli irqalar, dinlar va turli insonlarga ajratmaylik, hammasining negizi bir-insoniylik. Hozirgi kun ayrim psixologlarning aytishiga ko'ra tarbiyada erkinlik ustuvor bo'lishi ta'kidlanadi. Erkinlik bolada quyidagi xususiyatlarni namoyon etishda yordam beradi:

- Mustaqil fikrlay oladi
- Fikrlarini omma oldida tortinmay ayta oladi
- Muammoning yechimini topishda mas'uliyatni o'z zimmasiga oladi.

Yuqoridagi sanab o'tilgan holatda farzand har tomonlama mukammal va kreativ fikr egasi bo'ladi. Masaru Ibakuning „Uchdan keyin kech“ asarida ham erkin muhitda katta bo'lgan, fikrlarini eshitib, do'stona munosabatlar qurshovida ulg'aygan farzand kelajakda 47% muvaffaqiyatliroq ekanligini aytadi.

Asalning me'yordan ortig'i zaharga aylanishini aytuvchi ikkinchi taraf

qarashini yoqlovchi insonlar ham talaygina. Ularning fikriga ko'ra erkinlikning ortiqchasi farzand tarbiyasida bir qancha salbiy oqibatlariga olib kelishini aytishadi. Birinchidan, bola hamma bilan teng fikrlashini ro'kach qilib kattalarni hurmat qilmay qo'yadi. Ikkinchidan, olg'a surayotgan masalasi noto'g'ri bo'lsa ham uni barchaga yetkazishga harakat qiladi. Uchinchidan, sharqona tarbiyaning asosiga putur yetadi. Kaykovusning „Qobusnoma“ asari ham yozuvchining o'z farzandiga pand-nasihat ruhida yozilgan bo'lib, farzand tarbiyasidagi ahamiyatli masalalar yoritilgan.

Fikrimcha, tarbiyaning asosida erkinlik bolaga me'yorida berilishi zarur. Yo'qsa salbiy oqibatlar yillar o'tib o'zining bo'yini ko'rsatadi. Mehr-oqibat, kichiklarga izzat, kattalarga hurmat, nochor vaziyatga tushganda asl o'zligiga sodiq qolish kabi sifatlar farzand tarbiyasida muhim rol o'ynaydi. Xalqimizda aytilgan: „Olim bo'lma, odam bo'l“, - naqlida ham olam-olam ma'no mujassam. Mamlakatimizda shuning uchun ham ta'lim va tarbiya yonma-yon tarzda olib boriladi.

Xulosa o'rnida shuni aytishim mumkinki, tarbiyada ko'pgina qarashlarning yig'indisi sifatida erkinlik bolaning rivojlanishi uchun bo'lsa kerak, shunchaki uning hoyu havasining yo'lida bo'lsa bu, albatta, qusurli tarbiya hisoblanadi. Zero, inson bu hayotda aziz ekanligini tarbiyasi orqali ko'rsatib beradi.

18

Ba'zilar inson faoliyati tufayli yer shari zararlanib borayotganini ta'kidlashmoqda, ayrimlar esa inson faoliyati uni yashash uchun yaxshiroq joyga aylantiradi deb o'ylaydi

Bugungi shiddat bilan rivojlanib borayotgan davrda insonlarning qanday hayot kechirishlari muhim ahamiyatga ega, albatta. Ba'zi kishilar kuchli ong egalarining faoliyati tufayli Yer kurrasi zararlanib borayotganini ta'kidlamoqda. Ayrimlar esa inson faoliyati uni yashash uchun yaxshiroq joyga aylantiradi deb o'ylaydi. Xo'sh, aslida qaysi bir qarash o'rinli?

Texnika va texnologiya, sanoat yuqori darajada rivojlangan bugungi kunda atrof-muhitni muhofaza qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayrim insonlarning harakatlari Yer sharining zararlanishiga sababchi bo'layotganini ta'kidlayotganlarning yetarlicha asoslari bor. Zaminimiz inson faoliyati natijasida, turli ekologik muammolarga duch kelmoqda. Chiqindi va issiqxona gazlarining ortishi global haroratni oshirib, iqlim o'zgarishiga sabab bo'layotgani hech kimga sir emas. Xalqimiz "Toza havo-tanga davo", - deb bejizga aytmagan. Qishloq xo'jaligi, sanoat va transport faoliyatlari tabiat buzilishiga sababchidir. Poytaxtimiz Toshkent shahrining "eng iflos va chang shahar"

nomini olishi ham inson omili natijasidir.

Odamzod ona zaminda yashab, unibo'zi uchun qulay joyga aylantirishi zarur deydiganlarning ham yetarlicha sabablari bor. Masalan, shaharlarning qurilishi va infrastrukturaning rivojlanishi odamlar uchun yashash sharoitlarini yaxshilaydi. Innovatsiyalar va yangi texnologiyalar yordamida toza energiya manbalari va chiqindilarni qayta ishlash insonlarning salbiy ta'sirini kamaytiradi. Yana bir ijobiy tomoni ko'plab davlatlar va tashkilotlar tabiatni muhofaza qilish, biologik xilma-xillikni saqlash va muhofa qilinishi kerak bo'lgan hududlarni e'tiborga olishda faoliyat yuritmoqda. Yurtimizda "Yashil makon"larni tashkil etilgani fikrimizning yaqqol dalilidir.

Menimcha, inson omili natijasi Yer shari zararlanib bormoqda. Shuning uchun tabiat muhofazasini davlat siyosati darajasiga ko'tarish kerak. Turli xil ofatlar va suv tanqisligi, ozon qatlamining yemirilishi Ona Yerga ziyon yetkazishi mumkin. Qayta ishlashni rivojlantirish, transport vositalaridan kamroq foydalanish, toza suvni tejash, o'rmonlarni ko'paytirib, yangi daraxtlar ekish kabi oddiy qadamlar orqali Yer sharini asrash mumkin.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Ona sayyoramiz barcha uchun birdek azizligini unutmash kerak. Uni asrab-avaylash esa muqaddas burch.

19

Ba'zilar ta'lim olish jarayonida mehnat faoliyati bilan shug'ullansa, tajriba oshib boradi deyishadi, ayrimlar esa ta'lim jarayonida chalg'imasdan faqat bilim olish muhimligini ta'kidlashadi

Mehnat qilish va ta'lim olish haqidagi masala ko'p yillardan buyon muhokama qilib kelinmoqda. Ayrim insonlar o'qish jarayonida ishlash hayotiy tajribani orttiradi desa, boshqalar ta'lim jarayonida talabaning diqqati faqat bilim olishga qaratilishi kerak deydi. Qaysi fikr asosliroq?

Birinchi qarash tarafdorlarining fikriga ko'ra, ham o'qib, ham ishlash talabaning kasbiy faoliyatdagi bilimini mustahkamlaydi. O'qish jarayonida ishlagan talabada, birinchidan, hayotiy tajriba ertaroq shakllanadi, ikkinchidan, u moliyaviy mustaqillikka tezroq erishadi. Bu jarayonda talaba amaliyotning nazariyadan ustunligi sababli kelajakdagi hamkasblaridan bir qancha ustunliklarga ega bo'ladi. Bunga maktabimizga yaqinda ishga kelgan ikki nafar o'qituvchini misol qilib ko'rsatishimiz mumkin. Biri talabalik davridayoq o'z sohasida faoliyat yuritgan va shu sababli unda kasbiy tajriba yetarlicha. Ikkinchisi esa o'qishni tamomlab ishga tushgani uchun bilimi yetarli, lekin mahorat borasida birinchi ustozdan biroz orqada. Demak "Izlagan imkon topar" deganlaridek, ham o'qib, ham ishlash kelajakdagi muvaffaqiyat asosi

bo'la oladi.

Boshqa tomon esa ta'lim olish jarayonida talaba faqat bilim olishi kerakligini ta'kidlaydi. Ularning fikricha, o'z mutaxassisligi bo'yicha zarur bilim, ko'nikma va malakalarini o'zida shakllantirgan talabagina yaxshi kadr bo'la oladi. Chunki fan va texnika yildan yilga rivojlanib ta'lim jarayoni murakkablashib bormoqda. Ustozimiz Nigora Ehsonova talabalik davrida faqat o'qib yaxshi bilim olgan. Buning natijasida esa hozirda milliy sertifikatni qo'lga kiritib ko'plab abituriyentlarga ta'lim bermoqda.

"Har kim o'z qarichi bilan o'lchar" deganlaridek, menimcha, ta'lim olish jarayonida ishlash foydaliroq. Chunki mehnat faoliyati davomida kasbiy ko'nikmalar hosil bo'lishi bilan birgalikda talaba o'z ehtiyojlarini, jumladan, kontrakt to'lovini o'zi qoplay oladi.

Xulosa qilib aytganda, ta'lim olish va ish jarayoni uchun vaqtni to'g'ri taqsimlay olish talabaning o'ziga bog'liq. Tajriba va bilim birga rivojlantirilgandagina haqiqiy natijaga erishish mumkin.